

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYAT XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY  
MARKAZI**

**TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA FANGA OID  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Samarqand-2020**

Tolipova Tursuntosh Karshiyevna. Tabiatshunoslik darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish. Samarqand 2020. 36-bet.

**Muharrir:**

**J.Eshquvvatov** - SamDU huzuridagi XTXQTMOMH Ilg'or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-axborot tadqiqotlar bo'limi boshlig'i

**Taqrizchilar:**

M.Nuriddinova-p.f.n.,  
G.Ergasheva -XTXQTMOMH o'qituvchisi

*Samarqand VXTXQTMOMH ilmiy kengashining 2020-yil fevralda bo'lib o'tgan yig'ilishida muhokama etilgan va 4/3.6-sonli qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.*

## **Kirish**

*Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini amaliyatga joriy etish – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili*

Bugungi tez o'zgaruvchan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda yosh avlodni yuksak ma'naviyatli va intellektual rivojlangan shaxs qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur yo'naliшdagi islohatlar "Ta'lim to'g'risidagi" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi" Qonunlar hamda keng ko'lamli umummilliш dasturlar doirasida amalga oshirilib, dunyoning rivojlangan davlatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Eng avvalo ta'lim tarbiya jarayonining samaradorligi bugungi kun talabi, jamiyatning ehtiyoji, fan va texnikaning rivojlanish tendensiyalari asosida ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablarining sifatli bajarilishiga bog'liq.

Mamlakatimizda umumta'lim fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlarini yaratish bo'yicha o'ziga xos ijobjiy tajriba mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi" Qonunlari asosida 1999-yilda umumiш o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar orasida birinchilardan bo'lib, yangidan yaratilib amaliyatga joriy etilgan bo'lsa, 2004-2009 yillarga mo'ljallangan Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliш dasturi doirasida modernizatsiya qilindi. Uzluksiz ta'lim tizimining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida o'quvchilarining psixo-fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, 2010-2013 yillar davomida umumiш o'rta ta'limda 1260 soat hajmidagi mavzular optimallashtirildi.

XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Mazkur masala bo'yicha Yevropa Kengashi 1996-yilda "Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar" mavzusidagi Simpozium tashkil etib, unda Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning uzluksiz ta'lim tizimi uchun dastlabki tayanch kompetensiyalar belgilangan. Yevropa Parlamenti amaliy tajriba va takliflar asosida 2006-yil 18-dekabrdan Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar Uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan 8 ta tayanch kompetensiyalarni tavsiya qilgan. Bular quyidagicha nomlanadi:

1. Ona tilida muloqot qila olish.
2. Chet tilida muloqot qila olish.
3. Matematik savodxonlik, fan va texnikaga oid kompetensiyalar.
4. Informatsion texnoligiyalardan foydalanish.
5. O'rghanish uchun o'qish va mustaqil bilim olish kompetensiyasi.
6. Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi.
7. Tashabbuskorlik va tadbirkorlik kompetensiyasi.
8. Turli madaniyatlar, qadriyatlarni tushunish va o'z madaniyatiga ega bo'lish.

## **Amerika Qo'shma Shtatlari va Janubiy Koreya ta'lim tizimi jarayonida shakllantiriladigan kompetensiyalar**

**Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan 4 turkum tayanch kompetensiyalarni tavsiya qilgan:**

1. Fikrlash yo'llari yoki ko'p qirrali fikrlashga oid kompetensiyalar (kreativ, innovatsion, tanqidiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal qila olish, qaror qabul qila olish, o'rganish uchun o'qish, metabolish (метопознание)).

2. Samarali ishlash yo'llariga oid kompetensiyalar. Jamoada ishlay olish, hamkorlikda, birgalikda ishlay olish, sohasi bo'yicha samarali muloqot qila olish.

3. Mehnat qilishning samarali metodlari va vositalaridan foydalana olish. Axborotlardan foydalanish savodxonligi. AKT sohasidagi savodxonlik.

4. Dunyoda jamiyatda yashay olish. Fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, o'z kasbi sohasida yuqori martabaga erishish, shaxs sifatida ijtimoiy

ko'nikmalarga ega bo'lish.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan 6 ta tayanch kompetensiyalarni tavsiya qilgan:

1. Soha bo'yicha mavqega erishishga oid kompetensiyalar.
2. Mustaqil bilim olish kompetensiyasi.
3. Muammolarni hal qilish kompetensiyasi.
4. Kreativ fikrlash, ijodkorlik kompetensiyasi.
5. Kommunikativ kompetensiya.
6. Fuqarolik kompetensiyasi.

## **TAYANCH KOMPETENSIYALAR**

O'zbekiston Respublikasi ta'limning uzlusizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid umumiy kompetensiyalar belgilandi.

**Kommunikativ kompetensiyasi** – jamiyatda o'zaro samarali muloqotga kirishish uchun avvalo ona tilini hamda birorta xorijiy tilni o'zlashtirish, ulardan muloqotda samarali foydalana olishi, muloqotda ijtimoiy moslashuvchanlik, muomala madaniyatiga amal qilish, hamkorlikda ishlay olish;

**Axborot bilan ishslash kompetensiyasi:** mavjud media manbalaridan (internet, televizor, radio, audio-video yozuvlar, telefon, kompyuter, bosma nashrlar, elektron pochta va boshqa.) kerakli ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash;

**O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi** – doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib- o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini adekvat baholash va hayot tajribasida uchraydigan muammolarni hal eta olish;

**Faol fuqarolik kompetensiyasi** – jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilishi, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo'lish;

**Umummadaniy kompetensiya** – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish;

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan foydalanish kompetensiyasi** – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumдорligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kabilar.

## **TABIYOT O'QUV FANI BO'YICHA FANGA XOS KOMPETENSIYALAR**

**1. Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarini kuzatish, aniqlash , tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:** - tevarak-atrofdagi olam, maktab xonalari, mahallada nimalar borligini (bog'cha, maktab, do'kon, aloqa bo'limi va b.) jonli va jonsiz tabiat, jism va moddalar, chaqmoq chaqishi, qushlarning sayrashi, Oy va Quyoshning chiqishi, botishi, o'simliklar va hayvonlarning hayoti, kishilarning bahor, yoz va kuzdagи mehnati, qishloq tabiat, bog'da etishtiriladigan mevalar, Quyosh, lampochka, olovlardan yorug'lik va issiqlikning tarqalishi, shamolning esishi, bulutlarning harakati, yong'inlar yog'ishi, suvning isishi, tabiatda suvning aylinishi kabi holatlarini kuzatish. Sezgi organlarining vazifalarini, suvning uch holatini aniqlash, foydali qazilmalar va ularning turlarini, kun va tunning, yil fasllarining davriy almashishini va ularning bir-biridan farqlarini, yulduzlarni, Quyosh sistemasidagi sayyoralar (kometa, meteor va meteoritlar) ni, Oy va uning ko'rinish holatlarini kuzatish va aniqlash.

Jumladan: 1-sinf "Atrofimizdagi olam" darsligidagi "Bizning maktab", "Bizning mahalla", "O'simliklar kuzgi hayoti,", "Kishilarning kuzdagи mehnati" va h.k. mavzular;

1- sinf "Atrofimizdagi olam" darsligida keltirilgan "Tabiatdagi jism va moddalar", "Yil fasllari", "O'l kamizda uchraydigan qushlar", "O'l kamizda qish" va h.k. mavzular;

2- sinf "Tabiatshunoslik" "Tabiatda havo", "Suvning xususiyatlari", "Qora va rangli metallar", "Tuproq tarkibi", "Tabiat va inson" mavzulari;

3- sinf "Tabiatshunoslik" darsligida quyidagi mavzularni misol tariqasida keltirish mumkin. "Yulduzlar", "Sayyoralar", "Yil fasllarining almashinishi", "Insonning tabiatga ta'siri" kabi mavzular orqali ushbu kompetensiyani shakllantirish mumkin. Masalan: 2-sinf "Tabiatdagi jism va moddalar" mavzusini tushuntirish jarayonida barcha narsalar jism (muzlatgich, divan, chelak...) va moddalar (mis,

oltin, tuz, suv...) dan iborat ekanligini, ba'zi bir jismlar tabiiy bo'lishini, ba'zi jismlarni odamlar yasashini aytib o'tiladi. Shu damda moddalardan namunalar tarzida o'quvchilarga suv, temir, ko'mir, tuproq va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ular ushbu narsalarni kuzatadilar. Moddalardan har xil shakldagi jismlar - g'ildirak, ketmon, mashinalar yasalishini, bunda g'ildirak, ketmon, mashinalar - jismlarga aylanganini aniqlaydilar. Shu tariqa dars jarayonida o'quvchilarda xususiy kompetensiyalardan tabiatdagi jarayon va hodisalarni kuzatish hamda aniqlash, amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalari va tayanch kompetensiyalardan umummadaniy, axborot bilan ishlash kompetensiyalari shakllantiriladi.

## **2. Geografik ob'ektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi:**

### **A1**

O'zi yashaydigan joy (mahalla, qishloq, tuman, shahar) nomlarini biladi, u erdag'i geografik ob'ektlarning (tog', tekislik, suv havzalari va boshqalarning) nomlanishini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri qo'llay oladi;

O'zbekistondagi viloyat va shaharlarning nomlarini ayta oladi va to'g'ri yoza oladi.

### **A1+**

Joy nomlarining o'ziga xos mazmun va tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ayta oladi.

**3. Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:** - termometr yordamida havo va suvning haroratini, tarozi yordamida jismlarning massasini, sekundomer yoki soat yordamida vaqtini o'lchash, Quyoshning ko'rinma haraktiga qarab, kompas yordamida ufqning asosiy tomonlarini aniqlash. Havo bo'shliq emasligiga oid, shamol havoning harakati ekanligiga oid, yomg'ir tomchilari hosil bo'lishiga oid, kun va tunning, yil fasllarining almashinishiga oid tajribalarni o'tkazish. Globusdan Yerning aylanish o'qi, qutblari va ekvatorini, suv va quruqliklarni, yarimsharlar tabiiy xaritasidan materik va okeanlarni, yirik dengiz, daryo, tekislik va tog'liklarni, O'zbekiston Respublikasining tabiiy xaritasidan o'lkamizdagi yirik daryo, ko'l, tekislik va tog'larni, qo'riqxonalarni, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy xaritasidan mamlakatimiz chegaralari, qaysi davlatlar bilan chegaradosh ekanligi, mamlakatimiz poytaxti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududlarini ko'rsatish.

Jumladan: 2-sinf "Ob-havo", "Amaliy ish", "Gerbariy tayyorlash" kabi mavzularda tajriba o'tkazish;

3-sinf "Tabaitshunoslik" darslarida "Tabiatda havo", "Suvning xususiyatlari", "Tuproq" kabi mavzularni tushuntirish davomida tayanch kompetensiyalardan kommunikativ, axborot bilan ishslash,

shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi qator kompetensiyalar, fanning o‘ziga xos kompetensiyalardan esa tajriba o‘tkaza olish, globus va xaritadan ko‘rsata olish, tabiatni asrash va muhofaza qilish kompetensiyalari shakllantirib boriladi. Bundan tashqari ona tili faning nutqiy kompetensiya va o‘qish fanining xususiy kompetensiyalaridan tinglab tushunish kabi kompetensiyalari shakllantirib boriladi. SHu bilan birga o‘quvchilarni loborantlik, ekolog kabi kasblarga qiziqishlarini oshirish hamda ushbu kasblarga yo‘naltirish mumkin.

**4. Tabiatni asrash va muhofaza qilish kompetensiyasi:** - daraxt va butalarni payxon qilmaslik, gulzor, bog‘ va xona o‘simliklarini parvarishlash, hayvonlar, parranda va qushlar, suvni tejash, xazonrezgilik davrida barglarni yoqmaslik va tabiatimizni zararli moddalar bilan zararlanishidan asrash; suvni tejash va turli chiqindilardan ifloslanishidan, tabiatni turli zararli moddalardan, hasharotlardan va har xil chiqindilardan muhofaza qilish, yo‘qolib borayotgan hayvon va o‘simliklar (“Qizil kitob”ga kiritilgan va “Qo‘riqxana”larda saqlanayotgan hayvon va o‘simliklar) ni asrabavaylash va muhofaza qilish.

Jumladan: 2-sinf “Atrofimizdagi olam” darsligida “O‘simliklar olami”, “Gulzor”, “Xona o‘simliklari”, “Qushlar”, “Suv – ob hayat”, “Qushlar - bizning do‘stimiz”, “Biz va tabiat” kabi mavzular;

3- sinf “Tabiatshunoslik” “Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish”, “Tabiiy o‘simliklar”, “Madaniy o‘simliklar”, “Manzarali o‘simliklar”, “Dorivor o‘simliklar” va h.k. mavzularni misol qilib olish mumkin.

4-sinf “Tabiatshunoslik” darslarida “Suv omborlari”, “Suvni muhofaza qilish”, “Shamolning hosil bo‘lishi”, “O‘rmonlar”, “Er osti boyliklari”, “Qo‘riqxonalar”, “O‘lkamiz tabiatini asrang” kabi mavzular;

Masalan: 4-sinf “Tabiatshunoslik” darsidagi “Qo‘riqxonalar” mavzusini tushuntirish jarayonida yo‘qolib borayotgan hayvon va o‘simliklar turlarini muhofaza qilish va ko‘paytirish maqsadida qo‘riqxonalar tashkil etilgan. Ushbu maskanda hayvon va o‘simliklar

nazoratga olinadi. Noyob hayvon va o'simliklarning turlari ko'paytirilib, tabiatni asl holida saqlashga harakat qilinadi. Qo'riqxonalarda erosti boyliklari, daryolar va boshqa tabiat boyliklari muhofaza qilinadi. Shu tariqa dars o'tish jarayonida o'quvchilarda tabiatni asrash va muhofaza qilish va tayanch kompetensiyalardan kommunikativ, umummadaniy, axborot bilan ishslash kabi kompetensiyalari shakllantirib boriladi. Odobnama faniga xos ijtimoiy faollik (mavjud bilimlarini amaliyotda qo'llay olish) kompetensiyalari, ona tili fanning nutqiy kompetensiyalari ham shakllantirib boriladi. Shu bilan birga o'quvchilarni ekologlik kasbiga yo'altirish mumkin.

Jumladan: 1-sinf darsligidagi "Ko'chada yurish qoidalari", "SHahsiy gigiena", "Biz foydalanadigan jihozlar", "Elektr jihozlari", "Kompyuter", "YAshil dorixona" mavzulari;

1- sinf "Atrofimizdag'i olam" darslarida "Tabiatdag'i jism va moddalar", "Ob-havo", "Ijtimoiy foydali mehnat", "Suv- hayot manbai", "Vaqt o'lchov birligi", "Gigiyena - ozodalik", "Tish gigienasi", "Qanday ovqatlanish kerak?" va h.k.mavzular;

2- sinf "Tabiatshunoslik" darslarida "Tabiatda suv va havo" bo'limi, "Yoqilg'i sifatida foydalaniladigan qazilmalar", "Foydali qazilmalardan oqilona foydalanish", "Dorivor o'simliklar" kabi mavzular shu jumlasidandir.

3- sinf "Tabiatshunoslik" darslarida o'quvchilar "Shamolning hosil bo'lishi", "O'zbekiston Respublikasi tabiiy xaritasi", "Suv omborlari", "Suvni muhofaza qilish", "O'lkamiz tabiatini asrang" kabi mavzular orqali amaliyotda qo'llay olish kompetensiyasi shakllantiriladi.

Masalan: 2-sinf "Atrofimizdag'i olam" darsligidagi "Gigiena - ozodalik" mavzusini yoritish davomida, ya'ni uyqudan turgach, albatta, yuz-qo'lingizni yuvilishi, ovqatlanishdan oldin ham qo'llarni sovun bilan yuvish zarurligi, bunga sabab erda va har xil buyumlarda ko'zga ko'rinxaydigan bakteriyalar juda ko'p bo'lishi va h.k. ma'lumotlarni beriladi bu ma'lumotlardan amaliy hayotlarida foydalanishlarini shu bilan birga egallagan bilimlari amaliyotda

qo'llay olish kompetensiyasi va tayanch kompetensiyalardan umummadaniy, matematika savodxonlik kabi kompetensiyalari xam shakllantiriladi. SHu bilan birga odobnama faniga xos bo'lgan tanqidiy tafakkur qilish (o'z ustida ishslash, o'qish, o'rganish, izlash, analiz va sintez qilish, xulosa chiqarish) kompetensiyasi va ona tili fanning nutqiy kompetensiyalari ham shakllantiriladi. SHifokorlik, hamshiralik kabi kasblarga yo'naltirish mumkin.

Boshlang'ich ta'lif bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar 1-4-sinflar davomida o'quvchilarning "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" o'quv fanlaridan egallashlari shart bo'lgan minimal talablar majmuasini ifodalaydi. Bitiruvchilar uchun belgilangan talablar bajarilishi uchun bu talablar sinfma-sinf bajarib borilishi kerak. Har sinfda bajarilishi uchun esa tegishli talablarning har bir darsda bajarib borilishiga e'tibor berilishi lozim.

### **Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar kompetentlilik yondashuviga asoslangan holda belgilangan**

Ta'lif jarayonida har bir mavzu bo'yicha o'quvchilar an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlariga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar olgan bilimlari asosida mantiqiy fikrlay olishlari, bilimlarini oldingi mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lay olishlari, tayanch ko'nikmaga ega bo'lishlari, globus va xaritadan ko'rsatish ko'nikmasini egallashlari, o'lchash va tajribalar o'tkazish malakasiga ega bo'lishlari, olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olishlariga e'tibor qaratiladi.

Darslarni tashkil etishda ham kompetentlilik yondashuvga asoslaniladi.

45 minutlik darsda o'qituvchi uy vazifalarini tekshirishi, o'tilgan mavzuni so'rashi, o'tilgan mavzu bo'yicha globus va xarita bilan ishslash, o'lchash va tajriba ishlarini bajarish, yangi mavzuni bayon etish, yangi mavzuni mustahkamlash, uyga vazifa berish ishlari

o'tkazilishi kerak. Ayrim o'qituvchilar avval uy vazifalarni tekshirib chiqadilar, keyin o'tilgan mavzu bo'yicha 3-4 nafar o'quvchidan so'raydi, so'ngra bir nechta o'quvchiga o'lhash yoki tajriba o'tkazish ishini topshiradi, shundan keyin yangi mavzuni o'tadi. Yangi mavzuni mustahkamlashga ulgurmasdan qo'ng'iroq chalinib qoladi. Uy vazifasini esa qo'ng'iroq chalingandan keyin beradi.

Kompetentlilik yondashuvga asoslanib dars beradigan o'qituvchi o'tilgan mavzu bo'yicha tayyorgarlik darajasining tekshirilishiga barcha o'quvchilarni jalg qiladi. Bunda o'qituvchi o'tilgan mavzu bo'yicha qisqa savol-javob, test sinovi, diktant, kartochkalar bilan ishslash, turli interfaol metodlardan foydalanadi. Bir nechta o'quvchiga o'lhash, tajriba ishlari va boshqa topshiriqlar berilib, parta oralab uy vazifalarini tekshiradi. Tajribali o'qituvchi yangi mavzuni o'tishga ham, uni mustahkamlashga ham, uy vazifasini berishga ham ulguradi.

Kompetentlilik yondashuvga asoslangan ta'limda har bir mavzu bo'yicha tayanch bilim, ko'nimka va malakalarni barcha o'quvchilar egallaydilar. O'quvchida kompetenlilik shakllana borishi uchun u har bir mavzu bo'yicha eng kamida tayanch bilim, ko'nimka va malakalarni egallab borishlari lozim.

O'qituvchi mazkur fandan kompetentlilik yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturini sinchiklab o'rganib chiqishi kerak. Bunda dars jarayonida DTS bo'yicha o'quv fanidan uzlusiz majburiy ta'lim tizimini boshlang'ich ta'limni bitiruvchilariga qo'yiladigan majburiy minimal talablarning bajarilishiga erishish bilan birgalikda unda keltirilgan kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirishi kerak. Bunda o'qituvchiga taqvim-mavzu reja berilib, unda har bir mavzuda shakllantirishi kerak bo'lgan kompetensiyalar keltirilgan. Taqvim mavzu rejada, shuningdek, uni amalga oshirish yuzasidan qisqacha usullar ham keltirilgan. O'quvchilarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirish uchun darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish tavsiya etiladi.

Darslarda axborotlarni mustaqil ravishda izlash, ularidan foydalanish bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirishda darslikdan,

turli gazeta, jurnal, qo'shimcha adabiyotlar, lug'atlar, internet resurslaridan foydalanishni o'rgatish kerak.

O'qituvchi o'quvchilarda yuqoridagi kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini har bir darsda kuzatib borishi, ularda kompetensiyalarning qaysi jihatlari shakllanganligini e'tiborga olishi hamda o'tkazilgan nazorat ishlari (test savollari) orqali to'liq aniqlab har bir kompetensiyaning o'quvchi qanday egallaganligini alohida ko'rsatib berishi lozim.

Shunga ko'ra, eksperimentator o'qituvchiga metodik yordam sifatida tabiat fanidan 1-2-3-4-choraklar uchun tayyorlangan taqvim-mavzu rejalarda har bir mavzu bo'yicha o'quvchida shakllantiriladigan kompetensiyalar, uni amalga oshirish yuzasidan qisqacha usullar ko'rsatildi, nazorat ishlarini o'tkazishda o'quvchilarining bilim, ko'nikmalarini aniqlashda nazariy bilimlarini testlar va amaliy bilan birga ularning kompetentligini aniqlaydigan namunalar berildi.

O'rganilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarda xususiy va tayanch kompetensiyalarning qay darajada shakllanganligini uyga berilgan vazifalarni tekshirish orqali; kundalik, oraliq nazorat ishlarinini o'tkazish orqali, o'tilgan mavzular bo'yicha takrorlash darslari orqali aniqlashi mumkin. Bunda o'qituvchi uyga berilgan vazifani sinf o'quvchilarining qancha foizi qay darajada bajarganlarini aniqlab olgach, berilgan vazifani etarli bajarmagan o'quvchilardan ko'proq darsga jalg qilishi, ular bilan savol-javoblar tashkil etishi talab etiladi.

Atrofimizdag'i olam - 1- sinfda "Atrofimizdag'i olam" darslariga o'quv reja bo'yicha 33 soat , 2- sinfda 34 soat, 3-4 sinf "Tabiatshunoslik" darslariga 34 soat ajratilgan . Bu darslik mavzulariga ilg'or -pedagogik va AKTga asoslangan dars ishlanmalari va metodik tavsiyalar hamda darslikning multimedia ilovasi yaratildi.

Darslikning multimediali ilovasida videolavhalar, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, mashq-topshiriqlar, rebus va krossvordlar berilgan bo'lib, o'quvchilarining amaliy tafakkur va tasavvurlarini

shakllantiradi, mantiqiy fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Multimediali ilovasida foydalangan holda darslarning yangicha yondoshuvlar asosida tashkil etilishi o'quvchilarining ta'lif olish sifat va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tabiiyot va geografiya fanini mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumi kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi.

### **Geografik ob'ektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi.**

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyatda foydalana olish kompetensiyasi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

Ushbu fanga oid umumi kompetensiyalar o'quv dasturlarining 1-4- sinflarida yil oxirida keltirildi. O'quv dasturida nazorat ishlari ham berildi. Mazkur nazorat ishlari mavzular kesimida joylashtirilgan.

Me'yoriy hujjatlarni yuritishda tayanch va fanga oid kompetensiyalar quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi:

#### I. TK-tayanch kompetensiyalar

1. TK1 -kommunikativ kompetensiya;
2. TK2-axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi;
3. TKZ-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi;
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya;
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

#### II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;

2. FK2- geografik ob'ektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi;

3. FKZ-globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi;

4. FK4-tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi.

## **TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA FANGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Sinf: 3-sinf.**

**Fan: Tabiatshunoslik**

### **Mavzu: Uy hayvonlari**

**Darsning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga hayvonot dunyosi, uy hayvonlari va ularning turlari, inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumot berish;

**Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarda ona tabiat va hayvonot dunyosiga bo'lgan mehr –muhabbat tuyg'ularini uyg'otish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish, dunyoqarashini rivojlantirish;

**Asosiy tushuncha va atamalar:** sigir, buzoq, qo'y, qo'zichoq, ot, toychoq, echki, uloqcha, tuya, butaloq, eshak, xo'tik.

**Bilimlar:**

- uyda boqiladigan hayvonlarni bilish;
- hayvonlarning insonlar uchun foydali jihatlarini bilish;
- sigirning necha yilda voyaga yetishi, necha litr sut berishi, necha yil umr ko'rishini bilish;
- sigirni insonlar qanday maqsadlarda boqishlarini bilish;
- qo'y junidan sanoatda nimalar ishlab chiqarilishini bilish;
- ot suti va go'shti haqidagi ma'lumotlarni bilish;
- otning bolasi "toy" haqidagi ma'lumotlarni bilish.

**Ko'nikma va malakalar:**

- uy hayvonlarning turlarini ajrata olish;
- uy hayvonlarning nimalar bilan oziqlanishini bilish;
- otlardan odamlar qanday maqsadda foydalana olishlarini aytalish;

**Kutiladigan natija:** O'quvchilarda hayvonot dunyosi, uy hayvonlari va ularning turlari, inson hayotidagi ahamiyati,

o'quvchilarda ona tabiat va hayvonot dunyosiga bo'lgan mehr – muhabbat tuyg'ulari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. O'quvchilarda kichik guruhlarda ishlash ko'nikmalari shakllanadi, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish xususiyatlari rivojlantiriladi.

**Darsning metodlari:** "Aqliy hujum", "Klaster"texnologiyalari, "Mozaika" "To'rtinchisi ortiqcha", "U kim?, Bu nima?" didaktik o'yinlari, "Sehrli qo'llar" mashqi, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning shakli:** Suhbat-ma'ruza.

**Darsning usuli:** Tayyor materiallar va ko'rgazmalar usulida.

**Foydalilaniladigan materiallar:** uy hayvonlarning rasmlari, mulyajlari, go'sht va sut mahsulotlarining rasmlari, flipchart qog'ozi, A 4 formatli oq qog'oz, markerlar, tarqatmalar.

**Dars davomida olib boriladigan ishlari:**

- salomlashish;
- o'quvchilar bilan tanishish;
- o'quvchilarni diqqatini darsga jalg qilish;
- darsning qoidasi va dars shiorini e'lon qilish;

## **DARSNING BORISHI**

### **Tashkiliy qism:**

**O'qituvchi:** Assalomu alaykum bolajonlar.

Keling bir-birimizga tabassum qilib yaxshi kayfiyat hadya qilaylik!

**Dars shiori:**

Kelib ketma, bilib ket,  
O'qib ketma, uqib ket!

**Dars qoidasi:**

O'zgalar fikrini tinglash.  
Vaqtdan unumli foydalanish.  
O'zaro hurmat.  
Faollik.

## **1 2 “Qushchalar uyda”enerjayzeri**

*O‘quvchilar “Qushchalar uyda”enerjayzeri orqali kichik guruhlarga bo‘linadilar. Polga bir nechta doiralar chiziladi.*

O‘quvchilar (qushchalar)sinf xonasi bo‘ylab har tomonga erkin harakat qilib yuradilar.

**O‘qituvchi:** Mana o‘lkamizga “Bahor”fasli ham kirib keldi. Ko‘p qush(o‘quvchi)(lar uzoq issiq o‘lkalardan yurtimizga qaytib kelmoqdalar. Qushlar manzillariga yetib keldilar va in(doira)lariga 5 tadan qo‘ndilar.

O‘quvchilar 5 tadan kichik guruhlarga bo‘linadilar.  
O‘quvchilar o‘z guruhlariga nom tanlaydilar.

### **“U kim?, Bu nima?”mashqi.**

(hayvonlar mulyoji solib qo‘yiladi, ularga ta’rif beriladi.o‘quvchilar aniqlaydilar).

**O‘qituvchi:** Bolajonlar bu qutida nima bor deb o‘ylaysiz?

**1-variant:** Ular xonadonlarda, maxsus xonalarda yashaydilar. Odamlar doim ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatadilar.

**2-variant:** Ular ham o‘z navbatida insonlar uchun foydali mahsulotlar in’om etadilar.

**O‘quvchilar:** Bu qutida hayvonlar bor.

**O‘qituvchi:** Barakalla bolajonlar to‘g‘ri topdingiz. Bugungi o‘rganadigan mavzu “Uy hayvonlari”.

### **“Aqliy hujum”texnologiyasi.**

1.Siz qaysi uy hayvonlarini yaxshi ko‘rasiz?

2.Siz qanday mahsulotlarni sevib iste’mol qilasiz?

3.O‘sma mahsulotlar tarkibida qanday foydali vitaminlar bor?


4.Bu mahsulotlar qayerdan olinadi?

5.Inson uchun qanday foydali tomonlari bor?

O‘quvchilar bergan javoblarni o‘qituvchi flipchart qog‘ozga yozib boradi. Ularni yana yangi-yangi fikrlar, g‘oyalar bildirishga undaydi. Fikrlar umumlashtiriladi, to‘ldiradi.

## 1-topshiriq.

Berilgan rasmlardan uy hayvonlarini aniqlab,  
tarmoqlang.



## **2-topshiriq.**

Har bir uy hayvonining inson uchun foydali xususiyatlarini aniqlang.



## **Topishmoqlar:**

Nimagadir kalta dum,  
Burun o'rnida xartum.  
Yo'lda uchrar neki bil,  
Pisand emas kim u? (Fil)



Har kun tongda qo'shiq kuylab,  
Mag'rur yurar hovli bo'ylab.  
Kuyi bir xil, bir ovoz,  
Kim ashula aytar? ... (Xo'roz).




Quyon emas uzun qulqoq, ot emas, to'rtta tuyog. (eshak)




Xavzi qul qulum, oyoq uzun kalta dum. (tuya)



Kechalikka xov-xov, kunduzlikka vov-vov. (it)



Gala-galani ko'rdim, ko'chada gadoyni ko'rdim. (tovuq)



Oq bo'ldi, ola bo'ldi, ichidan chiqdi qora bo'ldi. (jo'ja)




Uzun qulq,  
To'rtta oyoq.  
Rangi oppoq,  
Yungi yumshoq. (Quyon)



### 3-topshiriq.

Uy hayvonlari bolalariga onalarini topishga yordam bering.



## **4-topshiriq.**

Hayvon nomlarini ingliz tilida aytish.

**A cow - sigir**

**A calf - buzoqcha**

**A dog - it**

**A puppy - kuchukcha**

**A sheep - qo'y**

**A lamb - qo'zichoq**

**A goat - echki**

**A kid - uloqcha**

**A horse - ot**

**A foal - toychoq**

**A cat - mushuk** **A kitten - mushukcha**

**A camel – tuya**    **A young camel – bo'taloq**

## **5-topshiriq.**


Ovozlar yordamida hayvonlarni aniqlash.




## **6-topshiriq. “Mozayka” o'yini**



## **7-topshiriq „To'rtinchisi ortiqcha” metodi**





### **«To'rtinchisi ortiqcha» texnologiyasi**

Jadval chizilib, har bir qatorida to'rtta hayvondan uchtasi ular uchun umumiy bo'lgan belgi bo'yicha alohida guruhga birlashtiriladi.

| Sigir | Bo'ri | Echki | Qo'zichoq |
|-------|-------|-------|-----------|
|       |       |       |           |

Jadvalga har xil qushlar oyoq va boshlarining rasmlari ilova qilinishi ham mumkin. Bolalar ularning oyoqlari nima bilan farq qilishini, suvda suzuvchi yirtqich qushlar hayotida qanday rol o'ynashini, shuningdek, tumshuqlari ovqatlanishida qanday yordam berishini tushuntirishlari kerak. Bu o'yin takrorlovchi-umumlashtiruvchi darslarning o'quvchilar bilimini tekshirishda, umumlashtirishda alohida ahamiyatga ega.

Har bir topshiriq guruhlarda o'quvchilar tomonidan bajariladi. Taqdimotlar o'tkaziladi.

Darsga yakun yasash va xulosalash

**Mavzu:** Insonning tabiatga ta'siri

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarning tabiat haqidagi tasavvurlarini boyitish,insonning tabiatga ta'siri bilan tanishtirish.

**Tarbiyaviy:** Tabiatnini asrab-avaylashga, himoya qilishga o'rgatish. Ona tabiatga mehr-muhabbatlarini yanada oshirish,tabiat ne'matlardan tejab foydalanishga o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish

**Kommunikativ kompetensiya:** muloqotga kirishish uchun zarur bo'ladigan og'zaki nutqni o'zlashtirish, jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalariga oid tayanch so'z va atamalarning ma'nosini aytib bera olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** mavzuga doir ma'lumotlarni kompyuter va boshqa manbalardan izlab topib, ulardan samarali foydalana olish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:** dunyoqarash va tafakkurini mustaqil ravishda o'stirib borish, atrofidagi tabiat manzaralarini estetik his etish, sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullanish, o'zini tuta olish, to'g'ri so'z bo'lish, o'zining xatosini tushunish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:** davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish; farzandlik va o'quvchilik burchini bilish, unga rioya qilish, sinfdagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:** o'zi yashaydigan o'lkaning tabiati, tarixiy obidalari haqida bilish; uyi, mактаби, turar joyini qadrlash; do'stlari, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo'lish.

**Dars turi :** Yangi bilim beruvchi

**Dars uslubi:** Suhbat ,savol-javob

**Dars jahozi:** Mavzuga mos rasmlar, didaktik materiallar

**Darsning rejasi;**

**1.** Tashkiliy qism. (2 daqiqa)

**2.** O'tilgan mavzuni takrorlash. ( xotirani sinash 12 daqiqa)

3. Yangi mavzuni bayoni. (10 daqiqa)
4. Mavzuni mustahkamlash (15 daqiqa)
5. O'quvchilarni baholash . (4 daqiqa)
6. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism**

O'quvchilarning darsga tayyorligini ko'rib chiqiladi.


*Dars salomlashish she'ri bilan boshlanadi.*

- So'zlarning eng shirini,
- Ochiq aytay sirini
- Odob bog'in sharbatin,
- Qalb gavharin qimmatin,
- Qo'l berib shu so'z bilan
- Dillar qulfin ochamiz
- Qaysi shirin so'z ekan?

**Hamma:** Assalomu alaykum,



**Salomlashish.** Davomatni aniqlash. O'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish.

- Qaysi millat dilbandisiz ?,
- Bormu ona yurtingiz.



Shunday shaklda **O'ZBEKİSTON** so'zini ko'tarib chiqib she'r aytadilar.

**II.O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarni bilimlarini savol-javob orqali so'rab bilish.**



**“Quvnoq disklar”ko‘rgazmasida shartli belgilar beriladi.**  
**Shartli belgini joyla.**

| Neft | Gaz | Ko'mir | ohaktosh | marmar | qum |
|------|-----|--------|----------|--------|-----|
|      |     |        |          |        |     |

**Ona tabiat turli narsalar nomini topshiriq qilib beradi.**

| Manzarali o'simliklar | Dorivor o'simliklar | O'tlar | Begona O'simliklar | Gullar | Madaniy o'simliklar |  |
|-----------------------|---------------------|--------|--------------------|--------|---------------------|--|
|                       |                     |        |                    |        |                     |  |

### III.Yangi mavzu bayoni.

Qadimda yerda o'rmonlar, cho'llar va dashtlar katta maydonlarni egallagan. O'rmonlarda daraxtlar o'zi ko'payib, o'zi o'sgan. Qariganda qurib, tanasi chirindiga aylangan. O'rmonlar hayvonlarga ham boy bo'lgan. Cho'llarda mavsumiy o'simliklar o'sgan, cho'l hayvonlari tabiiy ravishda hayot kechirgan. Dashtlar turli o'simliklarga, hayvonlarga juda boy bo'lgan. Tog'larda, tog' yonbag'irlarida ham o'simlik va hayvonot dunyosi turli-tuman bo'lgan. U davrlarda insonning tabiatga ta'siri katta bo'lmanan. Insonning aql-zakovati va mehnati bilan keyingi 100—150 yil ichida fan-texnika misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi. Turli mashinalar ixtiro qilindi, korxonalar qurildi, yangidan yangi shahar va qishloqlar barpo etildi. Yer yuzida aholi soni oshib bordi, odamlarning

turmush tarzi farovonlashdi. Shu bilan bir qatorda, insonning faoliyati tufayli Yer yuzi tabiatiga juda katta ziyon yetkazildi. Tabiiy ravishda vujudga kelgan dasht, cho'l va o'rmonlarning katta qismi o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlar dala va bog'larga, shahar va qishloqlarga aylantirildi. O'zlashtirilgan yerlarda tabiiy ravishda o'sadigan o'simliklar o'rniga madaniy o'simliklar o'stiriladigan bo'ldi. Madaniy o'simliklarning yangidan yangi navlari yaratilib, ularning sifati va hosildorligi oshirildi.

#### **IV.Mustahkamlash.**

##### **Panorama» texnologiyasi**

###### ***O'tkazilish tartibi:***

- 1) o'quvchilar guruhlarga ajratiladi;
- 2) o'qituvchi doskaga olti qatordan iborat quyidagi jadvalni chizadi;

|            |                         |                    |                    |                                 |                                     |
|------------|-------------------------|--------------------|--------------------|---------------------------------|-------------------------------------|
| Muammol ar | Yuzaga kelish sabablari | Salbiy oqibatlar i | Hal etish yo'llari | Nimalarni qarshi qo'-yish kerak | Men (biz) nima qilishim (iz) mumkin |
|            |                         |                    |                    |                                 |                                     |

3) o'qituvchi mavzuni e'lon qilib, guruhlardan shu mavzu bo'yicha qanday muammolar borligi va unga jadvaldagi tartib bo'yicha har bir guruh o'z fikrini yozishni tushuntiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni mustaqil xulosa chiqarishga va fikrlashga, muammoli vaziyatlarni bartaraf etish yo'llarini izlashga o'rgatadi. Bu usul yakka tartibda ham o'tkazilishi mumkin.

### **Test topshiriqlari:**

1. “Yer, yer osti boyliklari, suv, o’simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir ”. **Ushbu modda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida keltirilgan?**

- A) O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida;
- B) O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida;
- C) O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida;
- D) O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida.

2. **Tulki va yirtqich qushlarning kamayib ketishi qanday oqibatlarga olib keladi?**

- A) kemiruvchilar ko‘payib ketadi;
- B) g‘alla hosili ko‘payadi;
- C) yirtqich hayvonlar ko‘payadi;
- D) zarar kunanda hasharotlar kamayib ketadi.

3. **“Qizil kitob” qanday kitob?**

- A) Yo‘qolib ketishi xavfi bo‘lgan o’simlik va hayvon turlari haqida ogohlantiruvchi kitobdir.
- B) Yo‘qolib ketishi xavfi bo‘lgan o’simlik haqida ogohlantiruvchi kitobdir.
- C) Yo‘qolib ketishi xavfi bo‘lgan hayvon turlari haqida ogohlantiruvchi kitobdir.
- D) Tabiat muhofazasi haqida ogohlantiruvchi kitobdir.

### **V. Baholash.**

Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib baholash.

### **VI.Uyda vazifa berish .**

O‘quvchilar “Insonning tabiatga ta’siri” mavzusi asosida material to‘plash.

## Xulosa

O'zbekiston Respublikasi ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid umumiy kompetensiyalar belgilandi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish orqali axborotni tahlil qiluvchi, olingan ma'lumotlarni umumlashtiruvchi va o'quv jarayonini o'zida aks ettiruvchi ochiq fikrlash shakllantiriladi.

O'quvchining mustaqil bilimga ega bo'lishiga imkon beruvchi intellektual qobiliyatlar rivojlantiriladi. Ma'lumotlarni faol tarzda qabul qilish, muammolarni hal etish, turli vaziyatlarda bilimlarini qo'llay olish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, o'zining hissiyotlari va fikrlarini baholay olish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

O'quvchilarda o'zgacha fikrlarni qabul qilish uchun ochiqlik, boshqa odamlar bilan hamkorlik qila olish, o'zining xatolarini to'g'rilashga tayyorlik va murosaga kela olish shakllanadi. O'quvchilarning bilimlari va mavzu bo'yicha tajribalarini targ'ib etish, faoliyatni aktivlashtirish, kelgusi ishlaridagi motivatsiya hosil bo'ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv orqali o'quvchilarda faol ma'lumot olish va yangi axborot bilan bevosita ishlash,yangi ma'lumotlarni anglash, «Eski» bilimdan «Yangi» bilim tomon harakat qilish, yangi ma'lumotlarni o'z bilimlari bilan solishtirish,o'rganish jarayonini va o'zining tushuna olish qobiliyatini kuzata olish, bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda duch keladigan muammolarni hal etishda qo'llay olishga o'rganadilar.

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi DTS Toshkent-2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. -T. 1992.
3. Atrof-muhit muhofazasi va ekologik ta'lif-tarbiyaga oid ko'p yillik o'quv va ilmiy dastur hamda rejalar/ to'zuvchi: Ergashev A.E; Nizomiy nomli ToshDPI.-T.: 1991. 38b.
4. Baratov Pattox. Tabiatni muhofaza qilish: O'qituvchilar uchun fakultativ kurs yuzasidan qo'llanma.- T.: O'qituvchi, 1991.-256b.
5. Buyuk ipak yo'li: geografiya, turizm va ekologiya. Halqaro konferensiya ma'ruzalari to'plami, S.: 1998. 198b.
6. Bahromov A. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lif mакtablarining 3-sinflari uchun darslik – T.: "Cho'lpon" NMIU, 2014. - 120 b.
7. Bahromov A. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lif mакtablarining 4-sinflari uchun darslik – T.: "Cho'lpon" NMIU, 2014. - 120 b.
8. Bahromov A.D., Sharipov Sh.M., Nabiyeva M.T. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lif mакtablarining 3-sinfi uchun darslik. Mas'ul muharrir A.Nigmatov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 5-nashri.– T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016. -128b
9. Bahromov A. va b.q. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lif mакtablarining 4-sinfi uchun darslik. 3-nashri. –T.: "Sharq", 2017. - 120 b.

## **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI**

1. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi portali,
2. <http://www.multimedia.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta'lif dasturlarini rivojlantirish markazi sayti,
3. <http://www.pedagog.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti,

## **Mundarija**

|   |    |
|---|----|
| Kirish .....  | 5  |
| Amerika Qo'shma Shtatlari va Janubiy Koreya ta'lim tizimi jarayonida shakllantiriladigan kompetensiyalar..... | 7  |
| Tayanch kompetensiyalar.....  | 8  |
| Tabiyot o'quv fani bo'yicha fanga xos kompetensiyalar.....  | 9  |
| Tabiatshunoslik darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish.....                                    | 16 |
| Xulosa .....  | 31 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....  | 32 |

# **TOLIPOVA TURSUNTOSH KARSHIYEVNA**

## **TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA FANGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y

Ofset bosma qog'ozzi. Qog'oz bichimi 60x84 1/16.

«Cambria» garniturasi. Ofset bosma usuli.

2.25 bosma taboq Adadi: 50nusxa. Buyurtma №15/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash  
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

---

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.